

# XITOYNING “BIR MAKON, BIR YO‘L” DASTURINING UMUMIY TUZILMASI VA DUNYO IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI

Habibjonov Usmonjon Sherzodjon o‘g‘li

Xalqaro Nordik universiteti

magistranti

[habibjonovusmonjon9@gmail.com](mailto:habibjonovusmonjon9@gmail.com)

+998902772952

## Annotatsiya

Ushbu tadqiqot Xitoy Xalq Respublikasining (XXR) “Bir makon, bir yo‘l” istiqbol dasturi Yevroosiyo mamlakatlari bo‘ylab turli darajadagi bir nechta sohalarda potentsial iqtisodiy rivojlanish ta‘sirini o‘rganadi va tahlil qiladi. Dastur asosan tarixiy Buyuk Ipak yo‘liga asoslangan, quruqlikdagi Janubi-Sharqiy Osiyo, Okeaniya va Shimoliy Afrikani bog‘laydigan okeandagi “Dengiz ipak yo‘li” ni o‘z ichiga oladi.

**Kalit so‘zlar:** Xitoy, “Bir makon, bir yo‘l”, “OBOR”, iqtisodiyot, iqtisodiy o‘sish, hududiy infratuzilma, mintaqasi iqtisodiyoti, transport koridorlari, harajat, transport marjasи, eksport va import.

## Kirish

Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” dasturi, shuningdek, OBOR sifatida ham tanilgan, qadimiy Ipak yo‘li savdo yo‘llari bo‘ylab joylashgan mamlakatlar o‘rtasida global aloqalarni kuchaytirish va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ulkan rivojlanish strategiya bo‘lib, hozirgi kunda dasturga 141 ta mamlakatlar a‘zo hisoblanadi. 2013-yilda boshlangan dastur infratuzilma loyihamiga sarmoya kiritish, savdo va sarmoyani rag‘batlantirish hamda madaniy almashinuvga ko‘maklashishga qaratilgan. Tashabbus global iqtisodiy landshaftni qayta shakllantirish salohiyati tufayli xalqaro hamjamiyatning katta e‘tiborini tortdi.

Dastur ikkita asosiy komponentdan iborat: Ipak yo‘li iqtisodiy hamjamiyati va 21-asr dengiz ipak yo‘lidir. Ipak yo‘li iqtisodiy hamjamiyati butun Yevroosiyo bo‘ylab tarqalib, Xitoyni temir yo‘llar, avtomobil yo‘llari va energiya quvurlari kabi quruqlikdagi infratuzilma loyihalari tarmog‘i orqali Yevropa bilan bog‘laydi. 21-asr



dengiz ipak yo‘li esa Xitoyni Janubi-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq, Afrika va Yevropa bilan bog‘laydigan bir qator dengiz yo‘llarini o‘z ichiga oladi.

### Adabiyotlar tahlili

Ushbu tadqiqotga oid bir nechta taddiqotchilarning olib borgan izlanishlari o‘rganildi. Luca Bandiera hamda Vasileios Tsiropoulos tadqiqotlarida statistik tahlil o‘tkazish metodlaridan foydalangan bo‘lib, “Bir makon, bir yo‘l” istiqbol dasturi investitsiyalarini o‘zlashtiruvchi mamlakatlarning 28 foizi o‘rta muddatli vaqt mobaynida istiqbol dastur natijasida qarz nomutanosibligi jarayonini boshdan kechirishi mumkinligi aniqlandi.<sup>4</sup> Bularga 7 ta LIDC(the least developed countries) va 5 ta EM(emerging markets) davlatlari kiradi. Uzoq muddatli qarz barqarorligi sohasidagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, mamlakatlarning 37 foizi (51 ta davlatdan 11 tasi, shulardan 5 tasi LIDC va 6 tasi EM) istiqbol dastur sarmoyalari va moliyalashtirish natijasida o‘z qarzlarining YaIMga nisbati ortishi jarayonini boshdan kechirishlari mumkinligi takidlab o‘tilgan.<sup>5</sup>

Shu mavzuga oid yana bir tadqiqot tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot ekonometrik, shuningdek empirik tahlil metodidan foydalangan bo‘lib, Xitoyning 2013 yildagi “Bir makon, bir yo‘l” istiqbol dasturining transport koridorlari, hamda iqtisodiy o‘sish tendensiyalari tahlil qilingan. “Bir makon, bir yo‘l” istiqbol dasturi transport koridorlari loyihalari savdo aloqalarini, shuningdek mamlakat iqtisodiyotning 2,7 foizdan 9,6 foizgacha, dunyo miqyosida esa 1,8 foizdan 6,1 foizgacha o‘sishi prognoz qilingan.<sup>6</sup> Dunyodagi barcha mamlakatlar ham savdo aloqasi orqali yo‘qori foyda ko‘rmaydilar, ammo umumiy holatda olib qaraladigan bo‘lsa, dunyo iqtisodi va savdo aloqalarining barqarorlanishi mumkinligi takidlab o‘tilgan. Chunki barcha mamlakatlar dastur tarmog‘ining ta‘siri tufayli savdo xarajatlarining ortishiga ham olib kelishi mumkinligi aytib o‘tilgan. Tahlil natijasida istiqbol dasturga kiruvchi past daromadli mamlakatlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimi 7,5 foizga oshishi eng optimal yechim deb topilgan.

<sup>4</sup>Luca Bandiera, Vasileios Tsiropoulos. Trade and Investment Global Practice June, 2019

<sup>5</sup>S.Stone, and P.Menor, 2008. Trade Facilitation in the Greater Mekong Subregion: Impacts of Reducing the Time to Trade. Journal of GMS Development Studies Vol. 4. pp 1-20. Manila: ADB.

<sup>6</sup>International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank, 2019



Yana bir tadqiqotchi olimlarning ilmiy ishiga nazar soladigan bo'lsak, qo'yidagi maqola tadqiqotimizning mohiyatiga chambarchast bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu ilmiy ish statistik tahlil va prognozlash tadqiqot metodlari qo'llanilgan bo'lib, "Bir makon, bir yo'l" istiqbol dastur tashabbusi doirasida qarz barqarorligi va fiskal risklarni muvozanatlashtirish mavzusini yoritib berishgan. Qarz hisobidan moliyalashtiriladigan yirik sarmoyalarning qarz barqarorligiga ta'sirini, kiritilgan sarmoyalar iqtisodiy o'sishiga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rtasida tahlil olib borilgan. Ushbu ta'sirning metodologiyasi hamda prognozlari yuqori xilma-xillagini uchratishimiz mumkin. Panel ma'lumotlardan foydalangan holda, tadqiqot rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma sarmoyalarining umumiyo ko'rsatkichlari uchun ishlab chiqarish ellistikligini 0,09 va 0,18 oralig'ida ekanligini aniqladi. Biroq, har xil turdag'i investitsiyalar o'sishga turlicha ta'sir ko'rsatishi va investitsiya xarajatlarining samaradorligi mamlakatlarda farq qilishi mumkinligi e'tirof etilgan.<sup>7</sup>

### Tahlil va natijalar

Dastur Xitoyni quyidagi iqtisodiy korridorlar bilan birlashtirishga e'tibor qaratadi:


- Markaziy Osiyo va Rossiya orqali Yevropa;
- Markaziy Osiyo orqali Yaqin Sharq;
- Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo va Hind okeanidagi portlar.

MRS XXR qirg'oq portlarini quyidagilar bilan birlashishiga e'tibor qaratadi:

- Janubiy Xitoy dengizi va Hind okeani orqali Yevropa;
- Janubiy Xitoy dengizi orqali Tinch okeanining janubiy qismi

Dasturning Osiyo, Yevropa, Afrika va Yaqin Sharqni bog'lovchi koridorlari 2019 yilda umumiyo aholisi 4,1 milliard va yalpi ichki mahsuloti 16 trillion dollar bo'lgan besh mintaqaga mansub 50 dan ortiq mamlakatlarni qamrab oladi.

<sup>7</sup>L. Mohammed. China's 6 Magical Economic Corridors. 20 August, 2015.



**2-rasm: “Bir makon, bir yo‘l” dasturi xaritasi**

Bir qator strategik maqsadga ko‘ra, “Bir makon, bir yo‘l” istiqbol dasturi mamlakatlararo savdo va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash va bir qator xalqaro iqtisodiy hamkorlik yo‘laklarini barpo etish uchun xalqaro transport koridorlaridan foydalanadi. Qo‘yidagi asosiy mintaqalarda joylashgan mamlakatlar va asosiy portlarga integratsiyalashuv jarayonini amalga oshiradi. Yangi Evroosiyo quruqlik ko‘prigi, xususan XXR-Mo‘g‘uliston-Rossiya, XXR-Markaziy Osiyo-G‘arbiy Osiyo, XXR-Pokiston hamda Bangladesh-XXR-Hindiston-Myanma koridorlari hisoblanadi.

### “Bir makon, bir yo‘l” isiqbol dasturi hududidagi iqtisodiyotlar


<i>Qita’lar</i>	<i>Dastur hududidagi iqtisodiyotlar</i>
Markaziy Osiyo	Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, O‘zbekiston, Turkmaniston
Mongolya va Rossiya Federatsiyasi	Mongolya va Rossiya Federatsiyasi
Janubi-Sharqiy Osiyo	Vietnam, Kampuchiya, Tailand, Malayziya, Singapur, Indoneziya, Darussalam, Filippin, Myanma,



Janubiy Osiyo	Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Afg'oniston, Nepal, Butan, Shri-Lanka, Maldiv orollari
Yaqin Sharq va Yevropa	Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Sloveniya, Xorvatiya, Ruminiya, Bolgariya, Serbiya, Chernogoriya, Makedoniya, Bosniya va Gertsegovina, Albaniya, Estoniya, Litva, Latviya, Ukraina, Belarusiya, Moldova
G'arbiy Osiyo va Yaqin Sharq	Turkiya, Eron, Suriya, Iroq, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabiston, Qatar, Bahrayn, Quvayt, Livan, Ummon, Yaman, Iordaniya, Isroil, Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon, Misr

Xitoyning “Bir Makon-bir yo‘l” dasturiga a‘zo bo‘lgan mamlakatlar iqtisodiyotida barqarorlik bo‘lishi, hozirgi kunga kelib transport koridorlari yaxshilangach, o‘zaro xalqaro savdo aloqalarida ham sezilarli o‘zgarish kuzatilishi mumkin, hususan eksport va import qilinadigan kunlar sarfida ham.

Masalan, Markaziy va G'arbiy Osiyoda Afg'onistondan eksport qilish uchun 79 kun kerak bo‘lsa, Gruziyada atigi 8 kun. Janubiy Osiyoda Butandan eksport qilish uchun 24 kun va Shri-Lankadan 13 kun kerak bo‘ladi. Janubi-Sharqiy Osiyoda Singapurdan 4 kun, Kambodjada esa 19 kun sarflanadi.




**1-rasm: Submintaqalar bo‘yicha eksport va import qilinadigan kunlar sarfi<sup>8</sup>**

<sup>8</sup> Government of People's Republic of China, National Development and Reform Commission. 2015.



Bu qiymatlar dastur mintaqasidagi qoloq mamlakatlar uchun savdo xarajatlarini minimallashtirish, dastur koridorlari bo'ylab joylashgan mamlakatlarda savdo munosabatlarini barqarorlashtirish va rivojlantirish uchun savdo aloqalarini yaxshilash muhim ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi.



## 2-rasm: XXR yalpi ichki mahsuloti va jahon savdo hajmining o'sish dinamikasi (%)<sup>9</sup>


2008-2009 yilgi butunjahon global moliyaviy inqirozdan so'ng jahon savdosida daromadlar o'sishi sezilarli darajada pasaydi. 2015 yilgacha bo'lgan davr ichida jahon savdosи oldingi 7,1 foizga nisbatan 3,0 foiz pastroq o'sishiga erishgan. 2001-2007 yillar davomida mamlakatlar savdo hajmining 1 foizga o'sishi, ularning daromadini 1,5 marta o'sishiga olib kelgan.

Shuningdek, 2021-2022 yillardagi statistik ma'lumotlarga qaraganda, Xitoyning OBOR mamlakatlari bilan olib borilgan tashabbusi hamda umumiy savdo hajmi \$1,42 trillion tashkil qildi. Shuningdek, huddi shu ko'rsatkich bo'yicha, Pokiston davlati \$14,2 milliard, Rossiya mamlakati \$142,6 milliard, Hindiston mamlakati esa \$148,3 dollarni tashkil qilgan.

Ammo 2019-2021 yillarda daromad o'sishi savdoning 2,1 foizga o'sishiga olib keldi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsuloti (YaIM) o'sish dinamikasini pastligi savdo o'sishi va intensivligning pastligi bilan bog'liqligini

<sup>9</sup> A. Ardeno and A. Strut. CEIC Database and World Trade Organization, 2019.

ko‘rishimiz mumkin. Bu Xitoy Xalq Respublikasida (XXR) o‘sishning barqarorligi va tarkibiy o‘zgarishlariga to‘g‘ri keldi. Bunda 2018 yildan buyon iqtisodiy o‘sish har yili 0,9 foizga pasayish tendentsiyasiga ega bo‘lib, 2021 yilda 5,4 foizni tashkil etdi, bu so‘ngi 25 yildagi eng past ko‘rsatkich hisoblanadi. XXR iqtisodiyoti rivojlanishiga quyidagi tarkibiy omillar sabab bo‘ldi: mehnatga layoqatli aholining qisqarishi, ishlab chiqarishga safarbar qilingan xarajatlarining ortishi, tashqi talabning yetarlicha qondirilmasligining davom etishi va bir qancha tarmoqlarda ortiqcha resurslar sarfi kabi tsiklik omillarni uchratish mumkin.



**3-rasm: 2012 yildan 2023 yilgacha Xitoyda real yalpi ichki mahsulotning (YaIM) o‘sish surʼati va 2028 yilgacha bo‘lgan prognozlar.<sup>10</sup>**

2012 yildan boshlab hozirgi kunga qadar, shuningdek 2028 yilga qadar Xitoy mamlakatining real yalpi ichki maxsulotining statistik tendensiyasi berib o’tildi. Berilgan ma’lumotga ko‘ra, Xitoyning 2022 yilgi real YaIMi 2021 yilgiga nisbatan - 5,45% ga pasayganini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, huddi shu ko‘rsatkich 2023 yilda 5,20%ni tashkil qilib, 2022 yilgi holatga nisbatan 2,20% ga o’sganini tahlil natijasida ko‘rishimiz mumkin.

### Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tadqiqotimizdan kelib chiqgan holda, qo‘yidagi xulosalarini keltirib o‘tishimiz mumkin:

<sup>10</sup> <https://www.statista.com/statistics/263616/gross-domestic-product-gdp-growth-rate-in-china/>



*Iqtisodiy o'sish:* OBOR doirasida katta infratuzilma investitsiyalari ishtirokchi mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Yangi yo'llar, portlar va temir yo'llarning qurilishi bu mamlakatlarda ish o'rinalarini yaratadi va umumiy turmush darajasini oshirdi.

*Savdo aloqalarining ko'payishi:* OBOR Xitoy va dasturga jalg qilingan mamlakatlar o'rtasidagi savdoni kengaytirishga yordam berdi. Bu Xitoy uchun iqtisodiy integratsiyaning kuchayishiga va savdo sheriklarining diversifikatsiyasiga olib keladi.

*Mintaqaviy integratsiya:* "Bir makon, Bir yo'l" dasturi mintaqaviy hamkorlik va ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida integratsiyani rag'batlantiradi. Bu yangi sheriklik va ittifoqlarning shakllanishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida bir-biri bilan yanada bog'langan global iqtisodiyotning rivojlanishiga yordam beradi.

*Texnologik modernizatsiya:* Dastur shuningdek, texnologiya, xususan, infratuzilma va transport sohalarida taraqqiyotga turtki beradi. Bu turli sohalarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan yangi texnologiyalar va innovatsiyalarning rivojlanishiga olib keladi.

Dasturning ijobiy ta'siriga qaramay, uning barqarorligi va ba'zi ishtirokchi mamlakatlar uchun potentsial qarz risklari bilan bog'liq xavotirlar mavjuddir. Tanqidchilarning ta'kidlashicha, dastur Xitoy tomonidan berilgan kreditlarni to'lashda qiynalayotgan mamlakatlar uchun qarz tuzog'iga olib kelishi mumkin.

"Bir makon, bir yo'l" dasturi jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, uning turli tarkibiy qismlari iqtisodiy o'sishga, savdo hajmining oshishiga va mintaqaviy integratsiyaga hissa qo'shdi. Biroq, dastur bilan bog'liq barqarorlik va qarz risklari bilan bog'liq muammolarni hal qilish juda muhimdir. Ushbu xatarlarni yumshatish uchun ishtirokchi davlatlar shaffof va mas'uliyatli qarz olish amaliyotini qo'llashlari lozim. Ular o'zlarining kreditlarini barqaror qarzga tushib qolmasdan to'lashlarini ta'minlashlari kerak. Bundan tashqari, Xitoy va boshqa jalg qilingan davlatlar OBOR loyihibalarining moliyaviy barqarorligini monitoring qilish va baholash uchun yanada mustahkam asos yaratish uchun birgalikda ishlashi kerak.



Shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, "Bir makon, bir yo'l" dasturi jahon iqtisodiyotini yanada integratsiyalash va ishtirokchi mamlakatlarda rivojlanishni rag'batlantirish salohiyatiga ega. Biroq, uning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlash uchun dasturning barqarorligi va qarz risklari bilan bog'liq muammolarni hal qilish juda muhimdir.

### Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati

1. Luca Bandiera, Vasileios Tsipopoulos. Trade and Investment Global Practice June, 2019.
2. S.Stone, and P.Menor, 2008. Trade Facilitation in the Greater Mekong Subregion: Impacts of Reducing the Time to Trade. Journal of GMS Development Studies Vol. 4. pp 1-20. Manila: ADB.
3. International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank, 2019
4. L. Mohammed. China's 6 Magical Economic Corridors. 20 August, 2015.
5. Government of People's Republic of China, National Development and Reform Commission. 2015.
6. A.Ardino and A.Strut. CEIC Database and World Trade Organization, 2017.
7. <https://www.statista.com/statistics/263616/gross-domestic-product-gdp-growth-rate-in-china/>